

BADIIY ADABIYOTNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ROLI

Fayzullayeva Munavvar Bahodirovna

munavvarfayzullayeva41@gamil.com

Abdullayeva Robiyakhon

Samarqand davlat chet tillar instituti

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar:

*literature, fiction, culture, morality,
the literati, perfect man.*

ABSTRACT

Many people agree that literature plays a very important role in the education of young people, and accordingly, they try to interest their generation in fiction and literature. Undoubtedly, the future that awaits us depends on the younger generations. They begin to search and understand life only when they are interested in fiction by their relatives: grandparents, parents, brothers, sisters. Then there will be a good change in their upbringing, they can be more experienced, and then we can say that they are responsible people for our future

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Birinchi navbatda ushbu asosiy mavzu haqida so'z ketganda odamlarda "Badiiy adabiyot o'zi nima?" degan savol yuzaga kelishi tabiiy. Adabiyot - arabcha "adab" soʻzining koʻpligi hisoblanadi. Fan va amaliyotning biror sohasidagi yutuqlarni umumlashtiruvchi asarlar majmui (texnikaviy adabiyot, qishloq xoʻjaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot va boshqalar). Sanʼatning bir turi (badiiy adabiyot deb ham ataladi) voqelikni soʻz yordamida obrazlar orqali aks ettiradi.[1] Bu asarlarda albatta ma'lum bir mavzu asos qilib olinadi va o'sha mavzu asosida ma'lumotlar beriladi yoki shunga aloqador bo'lgan hayotiy yoxud faraziy voqealar bayon qilinadi.

Adabiyot - so'z san'ati. Ammo san'at turlari nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot san'atning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta'sirchan obrazlar yaratish ko'zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-tuman yo'llar bilan erishadi. Masalan, raqs harakatlar, tana a'zolarining ifoda imkoniyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarning hissiy ifodasiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro muttanosibligi alohida ahamiyat kasb etadi. Rassomga bo'yoq va mo'yaqalam yordam beradi. Haykaltarosh esa xom material (tosh, ganch, yog'och, metall) ga ishlov berish orqali go'zallik yaratadi. Adabiyot esa bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan farqlanadi.[2] Yoshlar o'rtasida badiiy adabiyotning o'rni juda katta. Yuqorida aytib o'tilganidek, avvalambor yoshlarga adabiyot haqida tushuncha va dastlabki ma'lumotlar berilishi zarur. Bu albatta kattalarning adabiyotga qanday yondashish kerakligini tushuntirishga ham bog'liq. Yoshi ulug' insonlar adabiyot, badiiy adabiyot haqida foydali va hamma qiziqib tinglay oladigan bir qancha ma'lumotlarni tushuntirib berishsa, bu suhbatni eshitgan yoshlarning 50% dan ortig'i bu mavzuga qiziqib qolishi sezilarli darajada bo'ladi. Va yana bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, yoshi ulug' insonlar o'zlarining

hayotida bo'lgan voqealarni va mana shu badiiy adabiyotni o'rganish orqali erishgan yutuqlarini ko'rsatib, ular haqida gapirib berish ham yoshlarda kerakli shijoat va g'ayratni shakllantirib bera oladi. Bu usulda nafaqat yoshi kattalar balki, ustozlar, ancha tajriba orttirgan yoshlar ham boshqa insonlarni adabiyotga qiziqitira oladi. Bunda ustozlarning o'rni ularning harakatlarining natijalari sezilarli darajada ekanligi barcha tasdiqlaydi "...ma'rifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib, agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz"[3] Bu mavzuga kengroq yondashadigan bo'lsak, boshqa tomondan olib qaraganda, yoshlarning o'zi bir-birlaridan ham o'rnak olishlari mumkin. Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin: ikki xil yoshlar guruhi, ularning biridagilar judayam yomon yoxud jinoyat kabi ishlarni qilmasada, birovga foyda ham keltirishmaydi. Boshqa guruhdagi o'smirlar esa judayam yomon, bezori, doim jinoyat qilib yuradigan yoshlardan bo'ladi. Va natijada albatta yomonlikning jazosi beriladi va jinoyatchilar qo'lga olinib kerakli joyga olib boriladi. Birinchi turdagi yoshlar esa insoniyatga na zarari va na foydasi tegmasdan yuraverishadi. Aynan shu yoshlar bilan adabiyotga oid seminarlar o'tkazish yoki tog'ri tanlangan adabiyotlarni taqdim etish lozim. To'g'ri tanlangan adabiyot deyilishdan maqsad – adabiyotlarning ham tanlash usullari, turlari mavjud. Ular har qanday mavzuda bo'lishi mumkin.

Badiiy adabiyotni o'qish maqsadi ham turlicha, qiziqishning sabablari ham turlicha bo'ladi. Kutubxona xodimi har bir kitobxonning o'qish maqsadini, avval nima o'qiganini, uni qanday qabul qilganini, qay darajada xotirada saqlab qolganini, qaysi muallifni, nima uchun va qaysi jihatlari uchun yoqtirishini suhbat, kuzatish, mulahazaga kirishish, formularini tahlil qilish usullari yordamida bilib olishlari shart bo'ladi. Badiiy asarlarda axloq, kishilarning o'zaro munosabati, Vatan, ona zaminga bo'lgan muhabbat, oila, nikoh, muhabbat, do'stlik, mardlik, mehr va oqibat, vijdoniylik va vijdotsizlik hamda boshqa ko'pgina hislatlar haqidagi masalalar ochiq oydin yoritilib ko'rsatiladi. Badiiy adabiyot kishilarning va biz kelajak avlod yoshlarining hayotda to'laqonli yashashimizda, baxtli va saodatli bo'lishimizda, yaxshi inson va komil shaxs bo'lib yetishishimiz uchun turtki bo'ladi va komil inson tarbiyasida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarni to'g'ri tanlay bilishda badiiy asarning g'oyaviy - badiiy qiymati, adib ijodida asarning o'ziga xos o'rni, asarning yaratilgan va o'rganilayotgan davr uchun ahamiyati, badiiy asarning ta'lim tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati, badiiy asarning kitobxonning yoshiga mosligi, munosibligi, o'quvchida qiziqish uyg'otishi, o'quvchining ma'naviy qiziqishi, talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasidan iboratdir.[4]

Kitoblarni, badiiy adabiyotlarni o'qigan inson "Kitobxon"ga aylanadi. Kitobxon inson "Kitobxon"ga aylanishining asosiy sababi uning hayotiga doir mavzudagi adabiyotlarni eshitish, o'qish, o'rganishdan boshlanadi. Ular avval bir mavzudagi kitoblarni qiziqib o'qiydi va zavqlanadi. Keyin esa turli xil kitoblarni o'qib-o'rganishga intiladi. Va uning onggi, idrok qilishi yanada keng qamrovli bo'ladi. Bunday jarayon bir necha kitobxonlar orasida sodir bo'lsa va ular bir joyga yig'ilishib taassurotlarini, kechinmalarini baham ko'rishsa, ma'lum mavzular asosida savol-javob tashkil qilib, bilimlarini sinab ko'rishsa kitobxonlik yuzaga keladi. Shu tariqa yoshlar badiiy adabiyotga yanada qiziqib, uni yanada chuqurroq o'rganishga harakat qilib kelajagi uchun poydevor qurishadi.

Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa - millat yashaydi.[4] Tan olish kerakki bu so'zlar bejiz aytilmagan, ajdodlarimizni, ota-bobolarimizni tarixini o'rganish orqali ham yaxshi natijalar ko'rsata olish mumkin. Ular har ishlarini fahm, aql, ziyraklik bilan bajarishgan. Ularning davridagi jamiyat aholisi hozirgi kundagidan ham ancha farq qilgan. Taniqli, buyuk bobokalonlarimiz o'zlari hayotni anglab, adabiyot, badiiy adabiyot kabi mavzularni tarixga muxrlashgan. Ular aqlan va jismonan qolganlardan farqli ravishda sezilarli darajada yetuk – komil inson bo'la olishgan. Komil inson tushunchasi har sohada tajribali, yetakchi, ish-amallarini o'zining o'rnida qila oladigan, har narsani o'zlarining onggi bilan to'g'ri fikrlay oladigan insonni anglatadi. Ular jamiyat bilan bemalol muloqot qila oladigan, har bir insonga

birdek ma'qul keladigan - madaniyat va ma'rifatni anglay oladigan insonlar hisoblanadi. Bunda madaniyat va ma'rifat ular juda yosh bo'lgan paytlaridanoq singdirib boriladi. Ko'rinib turibdiki bu xuddi zanjir kabidir: ta'lim, tarbiya bilan bog'liq. Shular to'g'ri o'rgatilsa va to'g'ri yo'lning boshlanish qismi mas'ullar bilan birgalikda bosib o'tilsa "haqiqiy inson"ni shakllantira olamiz.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.[1] Ta'lim, tarbiya bilan madaniyat va ma'rifat vujudga keladi. Buni esa keng miqyosda qolganlarga ham yetkazish uchun albatta bir inson shu jarayonni amalga oshirish darkor. Yoshlikdan ilm olib, oq-qorani taniy oladigan shaxs vaqt o'tib albatta u bir qancha yoshlarni to'g'ri, ma'rifatli yo'ldan yurishiga sabab bo'la oladi.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sulтони" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtiromlar bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gulto'ji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami "Al-jome' as-sahih" kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda.

Bir so'z bilan aytganda badiiy adabiyot hayotdagi eng muhim omillardan hisoblanadi. Yoshlar orasida badiiy adabiyotning rolini kuchaytirish bu jamiyatimiz, xalqimizning o'ziga bog'liq. O'smirlarni yoshlik yillarida badiiy adabiyotni kuchaytirish borasidagi faktorlarni vujudga keltirish keyinchalik manfaatli va samarali natijalarni ko'rsatishga dastlabki qadam bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" – Toshkent, 2010
2. Fayzullayeva M.B. "Badiiy adabiyotda ona obrazining yaratilish tarixi" https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9NS0PMkAAAAJ&citation_for_view=9NS0PMkAAAAJ:Se3iqnhoufwC
3. Temirova D., Yuldasheva S. Badiiy adabiyotlar targ'iboti va ularning inson hayotidagi o'rni // Oriental Art and Culture – 2021 – 196-197.
4. Qo'chqorov R., Qarshiboyev M., Toshboyev O. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" - o'quv qo'llanma, Toshkent, 2015 – 36.
5. Temirova D., Yuldasheva S. Badiiy adabiyotlar targ'iboti va ularning inson hayotidagi o'rni // Oriental Art and Culture – 2021 – 194